

BADIY PSIXOLOGIZM: NAZARIY YONDASHUV VA “PUANKARE” HIKOYASI TALQINI

Rushana Zaripova

f.f.f.d. (PhD), Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-8207-2819

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22243449>

Annotatsiya. Mazkur tezisda badiiy psixologizmning adabiyotshunoslikdagi nazariy talqinlari, psixologizm, psixologiklik, badiiy psixologizm va psixologik tahlil tushunchalarining o‘zaro munosabati hamda inson ruhiyatini badiiy ifodalashning asosiy tamoyillari tahlil qilinadi. A.Iezuitov, V. Kompaneets, N. Kodak, V. Fashchenko va A. Yesin qarashlari qiyosiy asosda ko‘rib chiqilib, psixologizmning badiiy asar mazmuni va uslubiy tizimidagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, nazariy qarashlar Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi misolida talqin qilinib, qahramonning ilmiy izlanishlari, o‘zligini anglash jarayoni, ichki iztiroblari va ruhiy kurashlari psixologizmning uslubiy dominanta sifatidagi xususiyatlari bilan bog‘liq holda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy psixologizm, psixologiklik, psixologik tahlil, ruhiyat, ichki dunyo, badiiy obraz, uslubiy dominanta, ruhiy kechinma, qahramon, “Puankare”*.

Abstract. This thesis examines the theoretical interpretations of literary psychologism in literary studies, the interrelationship between the concepts of psychologism, psychologicality, literary psychologism, and psychological analysis, as well as the principal approaches to the artistic representation of the human psyche. The views of A. Iezuitov, V. Kompaneets, N. Kodak, V. Fashchenko, and A. Yesin are examined from a comparative perspective, with particular attention given to the role of psychologism in the semantic and stylistic structure of a literary work. The theoretical approaches are further applied to Abduqayum Yo‘ldosh’s short story Puankare, where the protagonist’s scientific pursuits, the process of self-understanding, inner suffering, and psychological struggles are analyzed in relation to the specific features of psychologism as a stylistic dominant.

Keywords: *literary psychologism, psychologicality, psychological analysis, psyche, inner world, literary character, stylistic dominant, psychological experience, protagonist, Puankare*.

Kirish. Badiiy adabiyotning insonni anglash imkoniyatlari, avvalo, uning ruhiy olamini tasvirlash mahorati bilan belgilanadi. Insonning tashqi xatti-harakatlari, fikrlari, kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ruhiy holatlarini badiiy ifodalash adabiyotning muhim estetik vazifalaridan biridir. Shu ma’noda badiiy psixologizm adabiy asarning inson shaxsiyatini ochib beruvchi muhim jihatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologizm orqali qahramonning nafaqat tashqi harakati, balki uning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, fikr va tuyg‘ularining murakkab o‘zaro munosabati ham badiiy ifodalanadi.

Adabiyotshunoslikda psixologizm tushunchasi turlicha talqin qilingan. Ayrim tadqiqotchilar uni badiiy ijodning tabiiy xususiyati sifatida ko‘rsatsa, boshqalari inson ruhiyatini ifodalashning ongli estetik tamoyili yoki badiiy tasvir usullari tizimi sifatida baholaydilar. Shu sababli “psixologizm”, “psixologiklik”, “badiiy psixologizm” va “psixologik tahlil” tushunchalarining mazmun-mohiyatini farqlash masalasi nazariy jihatdan muhimdir.

Badiiy psixologizm tushunchasining nazariy talqinlari

A.Iezuitov psixologizm va psixologik tahlil tushunchalarini farqlash orqali mazkur muammoning nazariy chegaralarini belgilashga e’tibor qaratadi [A.Иезуитов, 1970. 52-6.]. Uning qarashlarida psixologizm badiiy ijod mahsuli va inson ruhiy holatlarini ifodalashning estetik tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik tahlil esa inson ruhiyati qatlamlarini anglash va ochib berishga qaratilgan usullar majmui sifatida talqin qilinadi.

V.Kompaneets Iezuitov qarashlarini rivojlantirib, psixologizm va psixologik tahlil o‘rtasidagi farqni yanada aniqlashtiradi [В.Компанец, 1980. С.47]. Uning yondashuvida psixologizm adabiyotning inson ruhiyatini aks ettirish bilan bog‘liq umumiy xususiyati bo‘lsa, psixologik tahlil ushbu imkoniyatni ongli estetik tamoyil asosida amalga oshirish vositasi sifatida talqin qilinadi.

N.Kodak “psixologiklik”, “badiiy psixologizm” va “psixologik tahlil” tushunchalarini farqlaydi [Kodak, 1980.C.6-7]. “Psixologiklik” soʻz sanʼatining inson ruhiy olamini ifodalashga xos umumiy badiiy xususiyatini, “badiiy psixologizm” muayyan davrning badiiy-estetik qarashlari va ijtimoiy-psixologik talablarini mujassamlashtirgan hodisani, “psixologik tahlil” esa insonning ichki olamini anglashga qaratilgan chuqur idrok va tafakkur faoliyatini bildiradi.

Kodakning qarashlarida psixologizm tahlil va sintez jarayonlarining birligi sifatida namoyon boʻladi. Bir tomondan, qahramonning ruhiy holati, ichki kechinmalari va psixik jarayonlari tahlil qilinadi; ikkinchi tomondan, mazkur kechinmalar umumlashgan estetik butunlikka olib kelinadi. Shu sababli badiiy psixologizm inson ruhiyatining alohida holatlarini qayd etish bilangina cheklanmay, ularni asarning umumiy gʻoyaviy-estetik tizimi bilan bogʻlaydi.

V.Fashchenko psixologizmni badiiy ijodning universal xususiyati sifatida koʻrib, inson va ijtimoiy guruhlarining psixik jarayonlari, ruhiy holatlari, kayfiyatlari hamda xulq-atvorining ichki birlikda aks ettirilishini uning asosiy mohiyati sifatida belgilaydi [Фашченко, 1981.C.279]. Shuningdek, u psixologizmni inson ruhiyatini yoritishning badiiy shakl va usullari tizimi sifatida talqin qiladi.

A. B.Yesin psixologik tahlilni psixologizmning konkret ifoda shakllaridan biri sifatida talqin qiladi [Есин, 2008. С.199,248] Uning qarashlariga koʻra, psixologizm har bir adabiy asarda bir xil koʻrinishda namoyon boʻlmaydi: ayrim asarlarda u alohida tasviriy vosita boʻlsa, boshqa asarlarda butun badiiy tizimning uslubiy dominantasiga aylanishi mumkin.

Psixologizm va uslubiy dominanta

Badiiy psixologizmning muhim jihatlaridan biri uning asar uslubiy tizimidagi oʻrnidir. Ayrim badiiy asarlarda ruhiyat tasviri ikkilamchi vosita sifatida xizmat qilsa, ayrim asarlarda psixologizm asarning mazmuniy va uslubiy tuzilishini belgilovchi asosiy tamoyilga aylanadi. A. B.Yesinning uslubiy dominantalar haqidagi qarashlari aynan shu masalani tushuntirish uchun muhimdir.

Yesinning fikricha, uslubiy dominanta asarning mazmuniy dominantasi bilan belgilanadi. Muammolar tizimi, asarning pafosi va gʻoyaviy yoʻnalishi muayyan uslubiy vositaning yetakchi mavqega chiqishiga sabab boʻladi. Shunday ekan, psixologizmni asarda uslubiy dominanta sifatida oʻrganish uchun uni asarning gʻoyaviy-mazmuniy asosidan ajratib boʻlmaydi.

Abduqayum Yoʻldoshning “Puankare” hikoyasida ruhiyat tasviri

Mazkur nazariy qarashlarni Abduqayum Yoʻldoshning “Puankare” hikoyasi misolida kuzatish mumkin. Hikoyada qahramonning ilmiy izlanishlari, oʻzligini anglash jarayoni va ichki kurashlari badiiy psixologizmning muhim koʻrinishlari sifatida namoyon boʻladi. Asarda qahramon ruhiyatining tasviri voqealar bayonidan ajralgan holda emas, balki uning ilmiy izlanishlari va ichki ziddiyatlari bilan uzviy bogʻlangan tarzda shakllanadi.

Hikoyadagi psixologik tasvirning asosiy xususiyati qahramonning tashqi harakatlari bilan ichki kechinmalari oʻrtasidagi bogʻliqlikda koʻrinadi. Qahramonning ilmiy izlanishlari uning ichki dunyosidagi savollar, ikkilanishlar va iztiroblar bilan uygʻunlashadi. Natijada ilmiy faoliyat oddiy syujet elementi boʻlib qolmay, qahramonning oʻzligini anglash jarayonini ochib beruvchi vositaga aylanadi.

“Puankare” hikoyasida psixologizmning uslubiy dominanta sifatida shakllanishi, avvalo, qahramonning ichki dunyosi asarning mazmuniy markaziga aylanishi bilan izohlanadi. Qahramonning ilmiy izlanishlardagi iztiroblari, oʻzligini anglash jarayoni va ichki kurashlari asarning asosiy mazmuniy qatlamini tashkil etadi. Shu bois ruhiyat tasviri asarning alohida epizodlarida uchraydigan vosita emas, balki uning umumiy badiiy konsepsiyasini belgilovchi tamoyil sifatida namoyon boʻladi.

Qahramonning ruhiy holati individual kechinmalar doirasida qolib ketmaydi. U ilm-fan, insonning oʻzligini anglash, shaxs va jamiyat munosabati kabi kengroq mazmuniy masalalar bilan bogʻlanadi. Shu jihatdan hikoyadagi psixologizm insonning ichki olamini tasvirlash bilan birga, uning mavjudlik mohiyatini anglashga qaratilgan badiiy vosita vazifasini ham bajaradi.

“Puankare” hikoyasida badiiy psixologizm qahramon xarakterini chuqurlashtirish bilan cheklanmaydi. U asarning gʻoyaviy mazmunini ochish, qahramonning ichki ziddiyatlarini asoslash va oʻquvchini uning ruhiy olamiga yaqinlashtirish vazifalarini ham bajaradi.

Xulosa

Badiiy psixologizm adabiyotning inson ruhiyatini anglash va tasvirlash imkoniyatlarini namoyon etuvchi murakkab estetik hodisadir. A. Iezuitov, V.Kompaneets, N. Kodak, V. Fashchenko va A. B. Yesin qarashlarini umumlashtirish orqali psixologizmni insonning ichki dunyosini badiiy ifodalashning umumiy xususiyati, estetik tamoyili va muayyan asarlarda uslubiy dominanta sifatida namoyon bo‘luvchi hodisa deb qarash mumkin.

Psixologizm va psixologik tahlilning farqlanishi ushbu tushunchalarning nazariy chegaralarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Psixologizm inson ruhiyatini badiiy aks ettirishning umumiy imkoniyati bo‘lsa, psixologik tahlil ushbu imkoniyatni amalga oshiruvchi ijodiy va estetik usullar tizimini ifodalaydi.

Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” hikoyasi misolida psixologizmning uslubiy dominanta darajasiga ko‘tarilishi qahramonning ilmiy izlanishlari, ichki iztiroblari, o‘zligini anglash jarayoni va ruhiy kurashlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Asarda qahramon ruhiyati badiiy tasvirning ikkilamchi elementi emas, balki hikoyaning mazmuniy va g‘oyaviy markazini tashkil etuvchi muhim omil sifatida yuzaga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlarn

1. Иезуитов А. Проблема психологизма в эстетике и литературе. – Ленинград: Наука, 1970. – С. 52.
2. Компанец В.В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е г.). – Ленинград: Наука, 1980. – С. 47.
3. Компанец В.В. Художественный психологизм как проблема исследования // Русская литература. – 1974. – № 1. – С. 46–60.
4. Kodak M.P. Психологізм соціальної прози. – Київ: Наукова думка, 1980. – С. 6–7.
5. Фашченко В.В. У глибинах людського буття. Етюди про психологізм літератури. – Київ: Дніпро, 1981. – С. 279.
6. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – Москва: Флинта, 2008. – С. 199, 248.